

Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari

Особенности умственного воспитания дошкольников

Peculiarities of mental education of preschool children

G.B.Xolmatova Zafarabod tuman

5-sonli MTT direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация о специфике умственного воспитания детей дошкольного возраста.

Annotation: This article provides information about the specifics of the mental education of preschool children.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi, bolalar, aqliy, tarbiya, o'ziga xos xususiyatlari.

Ключевые слова: дошкольник, дети, психические, учебные, особенности.

Key words: preschooler, children, mental, educational, features.

Mustaqil Respublikamiz uchun yosh avlodni har tomonlama etuk inson qilib tarbiyalash hayotiy muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy farovonligi fuqarolarning aqliy va axloqiy salohiyati hamda ularning ma'naviy darajada yuksak rivojlanishiga bogliq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida maktabgacha ta'lim ta'lim tizimining ilk bo'g'ini hisoblanadi va butun ta'lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi bo'lgan-barkamol avlodni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qaror bilan belgilangan kompleks tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida quyidagilarga erishildi:

- yuqori sifatli maktabgacha ta'limni ta'minlash, bolalarni sifatli maktabga tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga muqobil dasturlarni joriy etishga;

- bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo'lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etishga;

- 3-6 yoshdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash orqali maktab ta'limiga tayyorlashni tashkil etishga;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini 50 ta yangi qurilish hamda mavjud muassasalarning 1167 tasini rekonstruktsiya qilish va 983 tasini mukammal ta'mirlash orqali kengaytirishga;

- qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar badal to'lovini 30 foizgacha kamaytirishga;

- bolalarni maktabga ta'limga qamrovini 1,5 barobarga oshirishga.

Dasturning samarali amalga oshirilishi unda ko'zda tutilgan ko'rsatkichlar ijrosining borishini tizimli monitoring qilib borish orqali davlat organlarining doimiy nazoratida bo'ladi.

Qarorning amalga oshirilishi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida respublikamizning uzluksiz ta'lim tizimini yanada isloh qilish borasidagi rivojlanish yo'lining uzviy va bosqichma-bosqichligini ta'minlaydi.¹ Darhaqiqat, jamiyatimizning taraqqiy etishi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan huquqiy demokratik davlat qurishni etuk va malakali kadrlarsiz hal etib bo'lmaydi. Shu bois Respublikada amalga oshirilayotgan isloxlarning asosiy maqsadi va vazifasi inson va uning har tomonlama o'sib ulg'ayishi, kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ularning ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirishga qaratiladi.

Shuningdek, xalqimizning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy fan, texnika va texnologiyalar, iqtisodiyot yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish masalasiga ham keng e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanladi va kadrlar tayyorlash

¹ *O'zbekiston ovozi. 2017 yil 1 yanvar. 1-son (32.216)*

masalasiga alohida ahamiyat qaratildi. Bu borada ham qator chora - tadbirlar ko'rildi va amalda qo'llanildi.

Maktabgacha tarbiya sohasida yangi tashkil etilgan bolalar bog'chalari hamda «Bolalar bog'chasi - maktab majmui», «Xususiy bog'chalar», «Internat bog'chalar» tarmog'i rivojlanib bormoqda. Bolalarga chet tilini, xoreografiya, tasviriy va musiqa sanati, komp'yuter savodxonligi asoslarini va turli sport turlarini o'rgatuvchi 1000 dan ortiq guruhlar ochilgan.

Maktabgacha ta'lim bola 6 - 7 yoshga yetguncha oilada hamda davlat va davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha bolalar muassasalarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini maktabgacha bolalar ta'lim - tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyor tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini shakllantirish aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan.

Bolalarga tarbiya berishning maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida belgilanadi. Eng oddiy harakatdan tortib to keng ko'lamli davlat dasturi asosida tashkil etiluvchi tarbiya doimo muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi.

Maqsadsiz, ma'lum g'oyani ifoda etmaydigan tarbiya bo'lmaydi. Tarbiya maqsadi asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlanadi. Tarbiya maqsadining muammosi pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Tarbiya maqsadi umumiy va individual xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ilg'or pedagogika umumiy va individual maqsadlar birligi va uyg'unligini namoyon etadi.

Maqsad tarbiyaning umumiy ijtimoiy maqsadni ijobiy hal etishga yo'naltiriladi hamda aniq vazifalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, tarbiya maqsadi tarbiya jarayonini tashkil etish asosida hal etiladigan vazifalar tizimidir. Tarbiya maqsadlari mohiyati va ko'lamiga ko'ra umumiy va aniq vazifalar sifatida guruhlanadi.

Bolalarga dastlab asosan tarbiya berilishi juda muhim . Shu jihatdan tarbiya maqsadi qanday shakllanadi? Uning shakllanishida ko'plab ob'ektiv sabablar etakchi rol o'ynaydi. Organizmning fiziologik yetilish qonuniyatlari, insonning ruhiy rivojlanishi, falsafiy va pedagogik fikrlar yutug'i, ijtimoiy madaniyat darajasi maqsadga umumiy yo'nalish beradi. Biroq asosiy omil doimo davlat mafkura va siyosati bo'lib qolaveradi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi rahbariyati yoshlar orasidan eng iqtidorli, salohiyatlilarini tanlab, saralab olib, ularni ilmiy, madaniy-ma'naviy jihatdan kamolotga erishishlari, zamonaviy fan-texnika asoslarini puxta o'zlashtirib olishlari uchun g'amxo'rlik qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining istiqboli nazarda tutilib, ko'pgina yoshlarning Turkiya, Xitoy, Yaponiya, AqSh, Germaniya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborilayotganliklari fikrimizning yorqin dalilidir.


Jamiyat ma'naviyati va shaxs kamolotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviy va axlohiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Barchasining asosida yosh avlodga oila, maktabgacha ta'lim muassasasalari, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va samarasi yotadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari – aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo'llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiyani berish – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Aqliy tarbiya yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda etakchi o'rin tutadi.

Bilimlar tizimini ongli ravishda o'zlashtirish mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, mayillik va iqtidorni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berishning vazifalari quyidagilar sanaladi:



Muhammad alayhissalom o'z hadislarida; «Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilgaydir. Ilmu hunarni Xitoyga borib bo'lsa ham o'rganinglar. ... Ilm egallang. Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'iz damlarda yo'ldosh baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda quroldir» deydi.

Shuningdek, hadisi Sharifda «Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir» deyilar.

Alisher Navoiy o'zining «Farhod va Shirin» dostonidan Farhodning aqlu-idrokli, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va e'tiqodli bo'lganligini tasvirlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga jismoniy tarbiyani berish bolalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishga asoslangan mavjud ijtimoiy sharoit jismonan baquvvat, ishlab chiqarish jarayonida yuqori unum bilan ishlashga qodir, qiyinchiliklardan cho'chimaydigan, shuningdek, vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurligini ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston ovozi. 2017 yil 1 yanvar. 1-son (32.216)
2. . "Ilk va Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari". Toshkent . O'zRMTV . 2018 yil
3. G.R.To'xtasinova vb. Bolalar bog'chasida intellektual o'yinlar. Yandi asr avlodi. T.-2005
4. www.pedagog.uz
5. www.ziynet.uz